

HUDUDLARDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH UCHUN XAVFSIZLIK MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TAHLILIIY ASOSLARI

Xalilov Nurullo Xamidillayevich

“University of economics and pedagogy” NOTM

“Iqtisodiyot” kafedrası professori

E-mail: xalilovnurullo@mail.ru

Tel.: +998 91 291 46 46

Annotatsiya

Mazkur maqolada hududlarda korxonalar raqobatbardoshligini oshirish uchun xavfsizlik mexanizmini shakllantirishning tahliliy asoslari ilmiy jihatdan baholandi. Tadqiqotda institutsional-huquqiy, hududiy-infratuzilmaviy va korporativ-boshqaruv konturlari bo'yicha ko'rsatkichlar tizimlashtirildi hamda qiyosiy tahlil qilindi. Jahon banki korxonalar so'rovi, milliy statistika va xalqaro raqobatbardoshlik manbalari asosida ustunliklar va o'sish zaxiralari aniqlandi. Natijalar ruxsat berish jarayonlari va infratuzilma ko'rsatkichlarida ijobiy holat shakllanganini, korporativ boshqaruv va innovatsion faollikda esa rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatdi. Taklif etilgan besh bosqichli algoritm monitoringni tizimlashtirish, boshqaruv qarorlarini asoslash va hududiy sanoat siyosatini korxona darajasidagi amaliyot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilgan ilmiy asos yaratdi. Yondashuv hududlar bo'yicha xavfsizlik omillarini muntazam solishtirish, zaif nuqtalarni aniqlash va maqsadli choralarni belgilash imkoniyatlarini kengaytirdi hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga ko'maklashdi.

Kalit so'zlar: xavfsizlik mexanizmi, raqobatbardoshlik, hududiy rivojlanish, monitoring, infratuzilma, korporativ boshqaruv, innovatsion faollik, sanoat siyosati.

Аннотация

В статье были научно оценены аналитические основы формирования механизма безопасности для повышения конкурентоспособности предприятий в регионах. В исследовании были систематизированы и сопоставлены показатели институционально-правового, регионально-инфраструктурного и корпоративно-управленческого контуров. На основе опросов предприятий Всемирного банка, национальной статистики и международных источников конкурентоспособности были выявлены преимущества и резервы роста. Результаты показали благоприятное состояние разрешительных процедур и инфраструктурных показателей, а также наличие потенциала развития корпоративного управления и инновационной активности. Предложенный пятиэтапный алгоритм создал научную основу для систематизации мониторинга, обоснования управленческих решений и согласования региональной промышленной политики с практикой предприятий, обеспечивая более последовательную оценку факторов безопасности и конкурентоспособности. Дополнительно подход расширил возможности регулярного сопоставления территорий, выявления уязвимых направлений и определения адресных мер развития и повышения эффективности использования ресурсов.

Ключевые слова: механизм безопасности, конкурентоспособность, региональное развитие, мониторинг, инфраструктура, корпоративное управление, инновационная активность, промышленная политика.

Abstract

This article scientifically evaluated the analytical foundations for developing a security mechanism to strengthen enterprise competitiveness across regions. The study systematized and compared indicators within institutional-legal, regional-infrastructure, and corporate-management dimensions. World Bank enterprise surveys, national statistics, and international competitiveness sources were used to identify existing advantages and growth reserves. The findings showed favorable conditions in licensing procedures and infrastructure indicators, while corporate management and innovation activity retained further development potential. The proposed five-stage algorithm provided a scientific basis for structuring monitoring, supporting managerial decisions, and aligning regional industrial policy with enterprise-level practice. It also enabled a more consistent assessment of security and competitiveness factors across different territorial and organizational conditions.

Keywords: security mechanism, competitiveness, regional development, monitoring, infrastructure, corporate management, innovation activity, industrial policy.

KIRISH

Xavfsizlik mexanizmini hududiy darajada shakllantirish vazifasi nazariy talqindan o'ltchov amaliyotiga o'tishni talab etadi. Xalqaro standart riskni boshqarishni tashkilotning maqsadlariga ta'sir ko'rsatuvchi noaniqlikni aniqlash, tahlil qilish, baholash va ko'rib chiqishning takrorlanuvchi jarayoni sifatida belgilaydi [1]. Korporativ risk boshqaruvi modeli ushbu jarayonni strategiya belgilash va natijadorlikni ta'minlash bosqichlariga bog'laydi [2]. Har ikkala manba ham baholashning muntazamligi va o'lchanadigan ko'rsatkichlarga tayanishini asosiy talab sifatida ilgari suradi.

Tadbirkorlik muhitini o'lchash amaliyotida huquqiy normalarni ularning amaldagi ijrosidan ajratib baholash tamoyili qaror topgan. Jahon bankining metodologiya qo'llanmasi de-jure ma'lumotlarni ekspert konsultatsiyalari, de-fakto ma'lumotlarni esa ekspert va korxona so'rovlari orqali birgalikda to'plashni nazarda tutadi [3]. Baholash tizimi tartibga solish bazasi, davlat xizmatlari va operatsion samaradorlik ustunlari bo'yicha qurilib, firma hayotiy siklining bosqichlariga mos o'nta mavzuni qamrab oladi [4]. Ushbu mantiq xavfsizlik mexanizmini tahliliy jihatdan loyihalash uchun uslubiy namuna vazifasini bajaradi.

Milliy siyosat darajasida strategik maqsadlar samaradorligi ko'rsatkichlarini yangilash va ularning bajarilishi monitoringini to'liq raqamlashtirish vazifalari belgilangan [5]. Bunday yo'nalish hududiy darajadagi tahliliy asosni rasmiy boshqaruv konturi bilan bog'lash imkoniyatini kengaytiradi va baholash natijalarining amaliy talab qilinishini ta'minlaydi.

Nazariy jihatdan tahliliy asos deganda mexanizm elementlarini o'lchanadigan ko'rsatkichlar tiliga o'tkazish, ularni qiyosiy bazaga solishtirish va natijalarni

boshqaruv qaroriga aylantirish tartibi tushuniladi. Raqobatbardoshlikning manbalari haqidagi klassik qarashlar ushbu tartibning mazmuniy yo‘nalishini belgilaydi: joylashuv muhitining sifati [6] va korxonaning kompetensiyalarni qayta konfiguratsiyalash qobiliyati [7] baholanadigan asosiy obyektlar hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi hududlarda xavfsizlik mexanizmini shakllantirishning tahliliy asoslarini ishlab chiqish, ko‘rsatkichlar to‘plamini asoslash va qiyosiy baholash natijalari asosida ustuvor yo‘nalishlarni aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tahliliy asosni shakllantirish bilan bog‘liq manbalar o‘lchov obyektining darajasiga ko‘ra guruhlanadi: hududiy, milliy, tarmoq va korxona darajasi.

Hududiy darajada Yevropa Ittifoqining hududiy raqobatbardoshlik indeksi eng to‘liq ishlab chiqilgan vosita hisoblanadi. Indeks hududning korxonalar va aholi uchun jozibador muhit yaratish qobiliyatini o‘lchaydi hamda yangilangan tahririda metodologiya to‘liq qayta ko‘rib chiqilib, oldingi nashrlar qayta hisoblab chiqildi [8]. Ushbu tajriba hududiy ko‘rsatkichlarni vaqt bo‘yicha taqqoslanadigan holga keltirish zaruratini ko‘rsatadi.

Milliy darajada IMD jahon raqobatbardoshlik reytingi iqtisodiyotlarni iqtisodiy natijadorlik, davlat boshqaruvi samaradorligi, biznes samaradorligi va infratuzilma ustunlari bo‘yicha baholaydi hamda statistik ma‘lumotlarni rahbarlar so‘rovi natijalari bilan birlashtiradi [9]. Ushbu yondashuv obyektiv va subyektiv o‘lchovlarni bir tizimda birlashtirish imkoniyatini asoslaydi. Tarmoq darajasida UNIDO sanoat raqobatbardoshligi indeksi ishlab chiqarish va eksport salohiyati, texnologik chuqurlashuv hamda jahon savdosidagi ulush o‘lchamlarini birlashtiradi [10]. Innovatsion salohiyatni baholashda iqtisodiyotlarni taxminan sakson ko‘rsatkich bo‘yicha kirish va chiqish kichik indekslariga ajratuvchi metodologiya keng qo‘llaniladi [11].

Korxona darajasidagi tahliliy manbalar orasida O‘zbekiston xususiy sektorining rivojlanish dinamikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Ularda rasmiy xususiy korxonalarning yosh bo‘yicha o‘sish trayektoriyasi va bandlik hajmining shakllanishi tahliliy jihatdan yoritilgan [12]. Bevosita o‘lchov bazasi sifatida esa korxonalar so‘rovi natijalari xizmat qiladi; so‘rov infratuzilma, savdo, moliya, tartibga solish, boshqaruv amaliyoti va norasmiylik mavzularini qamrab oladi [13]. So‘rovning mikroma‘lumotlar bazasi namuna tuzilishi va vaznlash tartibini to‘liq ochib beradi [14].

Manbalarni umumlashtirish muhim uslubiy bo‘shliqni ochib beradi: mavjud o‘lchov tizimlari asosan milliy darajada agregatlangan bo‘lib, ularni hudud va korxona darajasidagi xavfsizlik holatini aks ettiruvchi yagona tahliliy konturga keltirish uslubiy vazifa sifatida ochiq qolmoqda. Ushbu vazifani hal etish maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot qiyosiy-tahliliy dizayn asosida amalga oshirildi. Empirik asos sifatida Jahon banki korxonalar so‘rovining O‘zbekiston bo‘yicha 2024-yilgi natijalari

tanlandi; so‘rov 2024-yil fevral-oktabr oylarida 1008 ta korxona rahbari va egasi ishtirokida o‘tkazilib, namuna tarmoq, korxona hajmi va hududiy joylashuv bo‘yicha stratifikatsiyalangan [13]. Namuna tuzilishi va vaznlash qoidalari so‘rovning uslubiy hujjatlarida keltirilgan [14].


Makro va hududiy darajadagi ko‘rsatkichlar Milliy statistika qo‘mitasining sanoat ishlab chiqarishi [15] va yalpi ichki mahsulot [16] bo‘yicha rasmiy matbuot relizlaridan olindi. Xalqaro qiyosiy fon sifatida sanoat statistikasining yillik nashri [17] va innovatsion salohiyat baholash natijalari [18] qo‘llanildi. Tashqi risk muhitini hisobga olishda global risk manzarasiga oid nashrning asosiy xulosalari asos qilib olindi [19].

Tahliliy algoritmi besh bosqichda qurildi. Birinchi bosqichda baholash obyekti - hudud va korxona darajasidagi xavfsizlik konturlari - aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda har bir kontur uchun rasmiy manbalarda mavjud bo‘lgan o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar tanlanadi. Uchinchi bosqichda ko‘rsatkichlar qiyosiy bazaga solishtiriladi. To‘rtinchi bosqichda ustunlik va zaxira sohalari ajratiladi. Beshinchi bosqichda natijalar boshqaruv qarorlariga aylantiriladi va monitoring rejimiga o‘tkaziladi.

Ko‘rsatkichlarni tanlashda uch mezon qo‘llandi: rasmiy manbada e‘lon qilinganlik, qiyosiy guruh bo‘yicha mos qiymatning mavjudligi hamda xavfsizlik konturlaridan biriga mazmunan tegishlilik. Taxminiy va hisoblab chiqarilgan qiymatlar tahlilga kiritilmadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahliliy algoritmi umumiy tuzilishi va bosqichlar o‘rtasidagi axborot oqimi 1-rasmda keltirilgan. Algoritmi yopiq kontur ko‘rinishida qurilgan bo‘lib, monitoring bosqichidan olingan natijalar ko‘rsatkichlar to‘plamini qayta ko‘rib chiqishga asos bo‘ladi.



1-rasm. Hududlarda xavfsizlik mexanizmini shakllantirishning besh bosqichli tahliliy algoritmi¹

¹ Manba: [1], [3] va [8] manbalaridagi uslubiy qoidalar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Algoritmning ikkinchi va uchinchi bosqichlari natijasida shakllangan ko'rsatkichlar to'plami 1-jadvalda keltirilgan. To'plam uch konturga ajratildi: institutsional-huquqiy, hududiy-infratuzilmaviy va korporativ-boshqaruv konturi.

1-jadval

Xavfsizlik mexanizmi konturlari bo'yicha korxona darajasidagi ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili, 2024-yil¹

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Yevropa va Markaziy Osiyo	Daromadi o'rtachadan past mamlakatlar	Kontur
Rahbariyatning tartibga solish talablariga sarflagan vaqti, %	1,6	8,0	7,7	I
Faoliyat litsenziyasini olish muddati, kun	6,5	41,2	20,9	I
Qurilish ruxsatnomasini olish muddati, kun	12,0	90,3	42,1	I
Import litsenziyasini olish muddati, kun	23,4	19,1	20,1	I
Eksportni bojxonada rasmiylashtirish muddati, kun	2,3	4,6	7,4	I
Norasmiy to'lov so'rovi bilan to'qnashgan korxonalar, %	7,5	6,1	15,3	I
Norasmiy sektor bilan raqobatlashuvchi korxonalar, %	16,9	27,8	50,3	I
Elektr uzilishlarini boshdan kechirgan korxonalar, %	14,7	26,2	53,5	II
Bir oydagi elektr uzilishlari soni	0,7	0,5	4,4	II
Elektr ulanishini olish muddati, kun	5,6	66,3	35,9	II
Suv ulanishini olish muddati, kun	5,7	38,9	23,8	II
Boshqaruv amaliyoti indeksi (0-100)	39,0	52,9	48,6	III
Tadqiqot va ishlanmalarga xarajat qilgan korxonalar, %	4,0	21,3	13,3	III
Yangi mahsulot yoki xizmat joriy etgan korxonalar, %	15,1	29,4	21,9	III
Jarayon innovatsiyasini joriy etgan korxonalar, %	11,0	20,1	12,8	III
Rasmiy kasbiy ta'lim tashkil etgan korxonalar, %	19,3	36,2	25,7	III
Investitsiyalarning bank mablag'lari hisobidan ulushi, %	12,6	16,2	12,5	III
Bandlikning yillik o'sish sur'ati, %	10,0	4,7	7,0	III

Birinchi kontur bo'yicha natijalar barqaror ustunlikni ko'rsatadi. Rahbariyatning tartibga solish talablari bilan bog'liq ish vaqti ulushi qiyosiy guruhlar darajasidan bir necha barobar past bo'lib, boshqaruv resursining asosiy qismi ishlab chiqarish va bozor vazifalariga yo'naltirilganini bildiradi. Faoliyat litsenziyasi va qurilish ruxsatnomasini olish muddatlari mintaqaviy o'rtachadan sezilarli qisqa, eksportni bojxonada

¹ Manba: [13] manbasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

rasmiylashtirish esa eng tezkor ko'rsatkichlar qatoriga kiradi. Import litsenziyasini olish muddati qiyosiy guruhlar bilan bir darajada bo'lib, ushbu muolaja bo'yicha yanada tezlashtirish imkoniyati saqlanib qolgan.

Ikkinchi kontur hududiy infratuzilma sifatining yuqori darajasini tasdiqlaydi. Elektr uzilishlarini boshdan kechirgan korxonalar ulushi daromadi o'rtachadan past mamlakatlar guruhi ko'rsatkichidan uch barobardan ko'proq past; elektr va suv ulanishlarini rasmiylashtirish muddatlari esa qiyosiy guruhlariga nisbatan bir necha o'n kunga qisqa. Ushbu natijalar sanoat korxonalari uchun ishlab chiqarish uzluksizligining tashqi shart-sharoiti mustahkam ekanini ko'rsatadi va yangi quvvatlarni joylashtirishda hududiy tanlov erkinligini kengaytiradi.

Uchinchi kontur o'sish zaxiralari eng katta bo'lgan yo'nalish sifatida ajralib turadi. Boshqaruv amaliyoti indeksi, tadqiqot va ishlanmalarga xarajat qiluvchi korxonalar ulushi hamda innovatsiyalarni joriy etish ko'rsatkichlari qiyosiy guruhlar darajasidan past. Ayni paytda bandlikning yillik o'sish sur'ati qiyosiy guruhlar ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lib, korxonalarning kengayish salohiyati faol ekanini tasdiqlaydi. Boshqaruv sifati va innovatsion faollikni oshirish orqali ushbu kengayish mehnat unumdorligining o'sishi bilan mustahkamlanishi mumkin.

Makroiqtisodiy fon tahliliy xulosalarni quvvatlaydi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil yanvar-oktabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 865,8 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, umumiy o'sish sur'ati 104,7 foizni tashkil etdi; Jizzax viloyatida 112,1 foiz, Navoiy va Xorazm viloyatlarida esa 106,7 foizlik natija qayd etildi [15]. Yalpi ichki mahsulot bo'yicha 2025-yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatkich 34 483,9 ming so'mni tashkil etib, real o'sish sur'ati 5,6 foizga teng bo'ldi, sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 26,1 foizga yetdi [16].

Innovatsion salohiyat bo'yicha xalqaro baholash ijobiy yo'nalishni tasdiqlaydi: O'zbekiston global innovatsiya indeksining 2025-yilgi nashrida 139 ta iqtisodiyot orasida 79-o'rinni egallab, daromadi o'rtachadan past mamlakatlar guruhida yettinchi, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida uchinchi o'ringa chiqdi; innovatsiya resurslari kichik indeksi bo'yicha 69-o'rin qayd etildi [18]. Tashqi risk muhiti esa moslashuv blokini loyihalashda hisobga olinadi: global risklar bo'yicha hisobotda bir ming uch yuzdan ortiq ekspert ishtirokidagi so'rov natijalariga ko'ra geoiqtisodiy raqobat ikki yillik istiqbolda yetakchi risk sifatida qayd etilgan [19].

Hududiy kesimdagi ma'lumotlar tahliliy asosning differensiallashgan qo'llanishini talab qiladi. Toshkent shahri bo'yicha 2025-yil yanvar-oktabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari 67,2 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarib, umumiy hajmdagi ulushi 40,1 foizni tashkil etdi [20]. Toshkent viloyatida 2025-yil yanvar-iyul oylarida qayta ishlash sanoati 73 007,1 mlrd so'mni tashkil etib, sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85,4 foizga yetdi [21]. Birinchi holatda ko'rsatkichlar to'plami kichik korxonalarning moliyaviy va boshqaruv bloklariga, ikkinchi holatda esa texnologik yangilanish va ta'minot zanjiri barqarorligiga urg'u berishi maqsadga muvofiq.

Algoritmning beshinchi bosqichi natijalarni boshqaruv qaroriga aylantirishni nazarda tutadi. Qiyosiy baholash asosida uchta ustuvor yo'nalish ajratildi:

institutsional ustunlikni ko'rsatkichlar orqali muntazam tasdiqlab borish, infratuzilma salohiyatini yangi quvvatlar joylashuvida to'liq ishga solish hamda korporativ boshqaruv va innovatsion faollik bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni kuchaytirish. Ushbu yo'nalishlar strategik maqsadlar monitoringini raqamlashtirish vazifalari bilan bevosita bog'lanishi mumkin [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahliliy tadqiqot hududlarda xavfsizlik mexanizmini shakllantirish uchun o'lchanadigan asos yaratish imkonini berdi.

1. Mexanizmni loyihalash jarayoni besh bosqichli tahliliy algoritm ko'rinishida rasmiylashtirilishi maqsadga muvofiq. Algoritmning yopiq tuzilishi baholash natijalarining ko'rsatkichlar to'plamini yangilashga qaytishini ta'minlaydi.

2. Ko'rsatkichlar to'plami uch konturga ajratilib, har bir ko'rsatkich uchun rasmiy manba va qiyosiy baza belgilanishi lozim. Ushbu tartib huquqiy norma bilan uning amaldagi ijrosi o'rtasidagi farqni o'lchash amaliyotiga mos keladi.

3. Institutsional-huquqiy kontur bo'yicha erishilgan natijalar - tartibga solish yukining pastligi, ruxsat berish muolajalarining tezligi va bojxona operatsiyalarining tezkorligi - mustahkam asos yaratdi. Ushbu ustunlikni saqlash uchun muolajaviy ko'rsatkichlarni hududiy kesimda davriy o'lchash tavsiya etiladi.

4. Hududiy-infratuzilmaviy kontur bo'yicha energiya ta'minoti va muhandislik ulanishlari ko'rsatkichlari yuqori darajada. Ushbu salohiyatni to'liq ishga solish uchun yangi sanoat quvvatlarini joylashtirishda hududiy ixtisoslashuv xaritasiga tayanish zarur.

5. Korporativ-boshqaruv konturi eng katta o'sish zaxirasiga ega. Boshqaruv amaliyoti indeksini oshirish maqsadida natijadorlik ko'rsatkichlari tizimini joriy etish va rag'batlantirish tartiblarini natijalarga bog'lash bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilishi taklif etiladi.

6. Hududiy monitoring paneli 1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar to'plami asosida shakllantirilib, uning ma'lumotlari strategik ko'rsatkichlar monitoringini raqamlashtirish vazifalari bilan bog'lanishi lozim.

7. Innovatsion faollikni oshirish yo'nalishida erishilgan xalqaro baholash natijalari hududiy dasturlar uchun boshlang'ich nuqta sifatida qo'llanishi, korxona-oliy ta'lim muassasasi hamkorligi esa shartnomaviy asosda rasmiylashtirilishi maqsadga muvofiq.

Taklif etilgan tahliliy asos hududiy sanoat siyosatini korxona darajasidagi o'lchov amaliyoti bilan bog'laydigan vosita sifatida qo'llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ISO 31000:2018. Risk management - Guidelines. International Organization for Standardization, Geneva, 2018. URL: <https://www.iso.org/standard/65694.html>

2. COSO's Enterprise Risk Management Framework – Integrating with Strategy and Performance. Enterprise Risk Management Initiative, NC State University. URL: <https://erm.ncsu.edu/resource-center/cosos-erm-framework/>

3. World Bank Group. Business Ready Methodology Handbook, First Edition. Washington, D.C., 2024. URL: <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/357a611e3406288528cb1e05b3c7dfda-0540012023/original/B-READY-Methodology-Handbook.pdf>
4. World Bank Group. Business Ready (B-READY) 2024. Washington, D.C., 2024. URL: <https://www.worldbank.org/en/businessready/publications-2024>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
6. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations // Harvard Business Review, 1990, March-April. URL: <https://hbr.org/1990/03/the-competitive-advantage-of-nations>
7. Teece D.J., Pisano G., Shuen A. Dynamic Capabilities and Strategic Management // Strategic Management Journal, 1997, Vol. 18, No. 7, pp. 509-533. URL: [https://doi.org/10.1002/\(SICI\)1097-0266\(199708\)18:7<509::AID-SMJ882>3.0.CO;2-Z](https://doi.org/10.1002/(SICI)1097-0266(199708)18:7<509::AID-SMJ882>3.0.CO;2-Z)
8. European Commission. EU Regional Competitiveness Index 2.0 - 2022 edition (Working Paper). Brussels, 2023. URL: https://ec.europa.eu/regional_policy/information-sources/publications/working-papers/2023/eu-regional-competitiveness-index-2-0-2022-edition_en
9. IMD World Competitiveness Center. IMD World Competitiveness Booklet 2025. Lausanne, 2025. URL: <https://www.imd.org/wp-content/uploads/2025/06/Booklet-WCR-2025-v3.pdf>
10. UNIDO. Competitive Industrial Performance (CIP) Index. UNIDO Statistics Portal, Vienna. URL: <https://stat.unido.org/analytical-tools/cip>
11. WIPO. Global Innovation Index 2025 at a Glance. Geneva, 2025. URL: <https://www.wipo.int/web-publications/global-innovation-index-2025/en/gii-2025-at-a-glance.html>
12. World Bank. Boosting private sector development in Uzbekistan. Europe and Central Asia Blog, 2024. URL: <https://blogs.worldbank.org/en/europeandcentralasia/boosting-private-sector-development-uzbekistan>
13. World Bank. Enterprise Surveys: Uzbekistan 2024 Country Profile. Washington, D.C., 2025. URL: <https://www.enterprisesurveys.org/content/dam/enterprisesurveys/documents/country/Uzbekistan-2024.pdf>
14. World Bank. Uzbekistan - World Bank Enterprise Survey 2024. Microdata Library. URL: <https://microdata.worldbank.org/index.php/catalog/6711>
15. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi URL: https://stat.uz/img/news/21112025/sanoat/press-reliz-sanoat-lotin_p95230.pdf

16. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Yalpi ichki mahsulot
URL: https://stat.uz/img/press-relizlar/analitika-vvp_zb-lotin_p95454.pdf
17. UNIDO. International Yearbook of Industrial Statistics, Edition 2025.
Vienna, 2025. URL: <https://www.unido.org/sites/default/files/unido-publications/2025-11/UNIDO%20Industrial%20StatisticsYearbook%202025.pdf>
18. WIPO. Global Innovation Index 2025: Uzbekistan Ranking. Geneva, 2025.
URL: <https://www.wipo.int/edocs/gii-ranking/2025/uz.pdf>
19. World Economic Forum. Global Risks Report 2026: Key Findings. Geneva, 2026. URL: <https://www.weforum.org/publications/global-risks-report-2026/full/global-risks-report-2026-key-findings/>
20. Toshkent shahar statistika boshqarmasi. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha matbuot relizi (19.11.2025). URL: <https://toshstat.uz/2025/Sanoat/1111.pdf>
21. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari. URL: <https://www.toshvilstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mitayangiliklar/18563-sanoat-ishlab-chiqarishining-asosiy-tarmoqlari-7>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz

Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi** rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 362/5 sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**